

POLVONNING METIN BARDOSHI MILLIYLIKNING RAMZIDIR MUROD MUHAMMAD DO‘STNING “DASH-U DALALARDA” HIKOYASI TAHLILI

Ruzmurodova Rayhona

Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11526845>

Annotatsiya: Maqolada dunyo adabiyotida mavjud an‘ana va adabiy usullarni milliy nasrimizga mohirlik bilan payvand qilishga erishgan ijodkorlardan biri Murod Muhammad do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasida Polvonning metin irodasi, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan ichki milliylik tuyg‘usi va voqealar tizimi haqida atroflicha fikir yuritilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, sujet, konflikt, kompozitsiya, badiiy asar tili, badiiy tasvir va ifoda vositalari.

Hikoyadagi Polvon va Xadicha obrazi o‘zining samimiy va betakrorligi bilan kitobxon qalbidan joy olib ulgurgan. Polvon qiyofasida “jonli, otash qalb” nafasi bor hech kimga o‘xshamagan xarakter egasi gavdalanadi. U Xadichaga nisbatan sevgisini hech bir o‘rinda oshkor qilmaydi, ich-ichidan ayolini yaxshi ko‘radi. Nima bo‘lgan taqdirda ham undan ajralgisi kelmaydi. Polvon o‘zi gapiradi, o‘zi sevadi, o‘zi kuyinadi, hammasi tabiiy va ishonarli, hech qanday yasamalik, soxtalik sizilmaydi. O‘quvchi kitobxon go‘yoki o‘z qalbidan polvon tuygan his-tuyg‘ularni kechiradi. Polvonning Xadichani Xatcha deyishi bo‘yoqdorlik jozibani kuchaytirgan obrazga “hayot manbai” singari jon bag‘ ishlaydi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul shunday deb yozgan edi: “Mendan bitta asar bilan yozuvchi adabiyotda qolishi mumkinmi deb so‘rashsa, “Ha! Bu Murod Muhammad Do‘st va uning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi”, deb javob qaytarardim... Hikoya xalq og‘zaki ijodi va XX asrdagi nasrning eng so‘nggi yutuqlarini yelkasida ko‘tarib turibdi” [1]. Topib aytilgan e‘tirofda (Nazar Eshonqul so‘zi nazarda tutilmoqda) hikoyada ikki asos: folklor va dunyo adabiyotining poetik an‘analarini o‘zlashtirganligi ta‘kidlanadi. Yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning hikoyalari o‘ziga xos uslubga ega. Hikoyalarni o‘qigan kitobxon, albatta o‘ziga tegishli xulosani oladi. Adabiyot ayvonida qolishi bashorat qilingan (Nazar Eshonqul tomonidan berilgan ta‘rif nazarda tutilmoqda) hikoya yozuvchining butun ijodiga tenglashtirilarkan, bunga asos yetarlimikin, degan ishtiboh ko‘ngildan kechadi. Shu bois muallifning ulkan hayayot haqiqatidan xabar beruvchi “Dasht-u dalalar” asarini tahlil etishga, tagmatnidagi ma‘nolarni anglashga harakat qilamiz.

Hikoya shunday jumla bilan boshlanadi “Xadicha ketdiyu ko‘ngildan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o‘lik chiqqanday huvillaydi...” [2]. Demak, voqea favqulotda yuz bergan hodisa tugun bilan boshlanadi. Polvonning halovati shunchaki buzilmagandek ayol ham shunchaki ketib qolmagan. Polvon uchun Xadichaning borligi nafaqat ko‘ngil halovati, balki tirikligi bilan teng. Xadicha ketganidan so‘ng Polvon ham uyiga kelmay qo‘yadi. Uy uni o‘z domiga tortadiganday bo‘ladi. Yolg‘izlik tushkinlikka tushish, bu hissiyotlari barchasi qahramon his-tug‘ularni tabiiy ifoda etadi. Polvonning yuragi “siqildi” odamlar malomat qilsada bog‘dagi bobosidan qolgan yerto‘lada yashashni afzal bildi. O‘zi bilan iti Qoratoyni ham yer to‘laga olib kiradi. Polvon o‘zidan o‘tganini o‘zi biladi chiday olmagan uchun dardini iti Qoratoyni bilan bo‘lishadi. Hikoyada voqealar ketma-ketligi qahramon harakatlarini ifodalab beradi.

Muallif Adol obrazi talqinida folklor ohanglaridan unumli foydalangan. U qahramonni ruhiy ma‘naviy yangilanish sari undovchi kuch sifatida gavdalantiriladi, ismida ham aytilmagan gaplarga ishora bor. Adolat akasiga “Bu kuningizdan o‘lganingiz yaxshiroq edi” deya ta‘na qilib

og'rinadi. Adolat o'z vazifasini bajargach, voqealar markazidan chekinadi. U akasini oldinga intilishiga ko' maklashdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Polvon qirq kundan beri arazlab uyiga ketgan xotinini xayolidan chiqara olmaydi. Ba'zan turmush o'rtog'ining "siyog'i ham esidan chiqqanday" bo'lib uni eslaydi. Darrov shamollab qoladigan ayolning ivirsirab yurishini ko'ngli tusay boshlaydi. Aslida turmush o'rtog'i o'zi hoxlab ketgani yo'q, to'g'rirog'i haydaldi. Erining qayt deyishini intiqlik bilan kutdi, qayta -qayta kutdi. Ammo, Polvon shashtidan tushmadi. Kamiga uydan qizini sudrab chiqishi Xatchaga og'ir botdi, xo'rliqi keldi. "Musht yeganda yig'lamagan ayol, buni eshitib yomon bo'shashdi, ko'ziga yosh oldi" O'zbek xalqi oila muqaddas "qo'rg'on" ekanligi, shu "qo'rg'on" ning shoh va malikasi farzand bo'lishini juda qadrlaydilar. Oradan qirq kun o'tsada ajrashib ketmasligi azob -uqubatlarga chidamli bo'lish ham bir millatga xos bo'lgan o'zgacha bir g'urur o'zgacha bir iftihordir. Hikoyada e'tibor qaratilgan juda muhim nuqta bor - xalq donishmandligi masalasi. Muallif aynan shu nuqtadan turtki vazifasida unumli foydalangan Polvon hayotini hal qiluvchi kutilmagan ravishda Adol yondira olmagan o'zni alangaga aylantirish vazifasi Nazar Maxsum zimmasiga tushadi. Polvon nima qilishni bilmay o'ylay boshlaganida Nazar Maxsum olovga moy sepadi. Polvon Konflikt ichki (psixologik) duch keladi. Konflikt (lotincha - to'qnashuv) deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushiniladi.[4] Nazar Maxsum Polvonni avraydi va undan taloq so'zini olishga urinadi, oladi ham. Polvon taloq so'zini aytganda go'yoki Xadichasiz hayotda bo'm- bo'sh hech vaqosiz qolganday his etadi. Taloq inson hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega islomiy qadiryat: er va xotin o'rtasida moddiy va ma'naviy tugunni yechishdir. Nikohning muqaddas va yuki og'irligini Narar maxsum juda yaxshi biladi, ammo Polvon shubxalariga asos topadi. Maxsum "meniki bir sabab ..." deya qistirib o'tadi. Shunda Polvon gap nimada ekanligini tushunadi. Polvonning g'ururi uyg'ondi. Ruhiy holat ayni tig'iz pallaga o'tadi. Elchining gaplari Polvonning hamiyatiga tegadi, u kutilmaganda xulosasini aytadi. "Mo'ljalni xato olgan ekansiz,-dedi Polvon.- Qo'yadigan xotanim yo'q!" Polvon Xadichani olib kelgani boradi, ammo qaynilari uni urib bog'lab "xadichani javobini berasan" deya kaltaklashadi. Polvon kaltaklanishiga qarshilik qilmaydi, qilsa ham bo'lardi. Ammo "etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi", deya tantilik qilib tanasini kaltakka qo'yib beradi, dod-faryod qilmadi, vaziyatni kuzatdi. Hatto qamchi zarbidan joni og'risa-da, og'riqni sezmaydi. Joniga azob berayotgan qamchini "mayda o'rim" ekan deya baholashiga hayron bo'lmaysiz, ishonasiz. Har bir holat, har bir nafas, har bir lahza muallif e'tiboridan chetda qolmaydi. Muallif bunday o'ta nozik holat tasviri bilan cheklanmaydi, qahramon ruhiyatining lahzalarini chizishga harakat qiladi. Qamchining zarbidan tanasi tilka pora bo'ladi, urgichlar charchab, qoniga botirib talog'ini aytishga majbur qilsa-da, taslim bo'lmaydi. Tepkilar ostida zo'ravon etigining nag'ali yeyilgani, "qushning tiliday yupqa" bo'lib qolganligini, qamchining "vizillab" ovoz chiqarishini bilib, eshitib yotadi, o'zini qo'yib beradi. Polvon xuddi tush ko'rayotgandek, o'zini chetdan turib tomosha qiladi. Bunday azobga chidashiga uni nima majbur qildi? Polvonday g'ururi baland yigitning kaltakka ixtiyoriy taslim bo'lishiga majburlagan kuch nima? Polvonni tanasi zirqirasada ko'ngli hotirjam. Barcha qiynoqlarga bardosh bergan Polvon Xadichaga qilingan tuhmatga ishonib uni haydagan bo'lsa endi uning o'zi Xatchani olib ketadi. Polvon avvalgi sahnalarda tush ko'rishni istagan bo'lsa endi uyg'onishni xoxlardi. Chunki Xadicha yonida uni uyg'onsa ham yuqotib qo'ymaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak baxt bu tinchlik ya'niy ko'ngil xotirjamligi. Murod Muhammad Do'st o'zbek olilasining ichki qo'rg'oni sirlaridan hikoya qiladi borini aytadi, yolg'on yo'q qanday bo'sa shunday tasvirlaydi. Hikoyani Muhabbat kuylari deb ham atash mumkin. Dasht-u dala kengligi

singari Polvonning muhabbati ham toza pokiza tuyg'ularga boy. Oila mustahkamligi albatta, ko'proq erkar kishiga metin bardoshiga, bog'liq ekanligiga guvoh bo'lasiz.

References:

1. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish" meros nashriyoti Toshkent :2004-yil.
2. T.Boboyev "Adabiyot asoslari" Toshkent:"O'zbekiston" 2001-yil.
3. Murod Muhammad Do'st " Dasht-u dalalarda" hikoyasi 2013-yil.
4. S.To'laganva "Dasht-u dalalar " hikoyasi tahlili "Oyna" 2023-yil.